



HUJUROT SURASIDAGI BALOG'AT QOIDALARI VA QO'LLANILISHI

Norxo'jayeva Nilufar

Toshkent islom instituti 4-kurs talabasi

Hujurot surasi Madinada nozil bo'lgan. 18 oyatdan iborat. "Hujurot" – "hujralar" deganidir. Suraning ichidagi "...seni hujralar ortidan chaqirayotganlar..." oyatidan olinib, suraga ism bo'lib qolgan. "hujurot" surasi o'n sakkiz oyatdan iborat bo'lismiga qaramay, ichida o'n sakkiz ming olamga tatigulik ma'nolar bor. Zero, ushbu sura shariat va aqiydaga oid ulkan haqiqatlarni o'z ichiga olgan.

Bu surai karimani ulamolarimiz "odob va axloq surasi", deb ham ataydilar. Chunki ushbu surada mo'min kishining Allah subhanahu va taologa nisbatan odobi, Payg'ambar alayhissalomga nisbatan odobi, o'ziga nisbatan va boshqalarga nisbatan odobi bayon qilingan. Surai karima avvalidan oxirigacha odob masalasini atroflicha muolaja qiladi.

1. Tamsiliy istiora

يَأَيُّهَا الَّذِينَ ءَامَنُوا لَا تُقْرِئُوا بَيْنَ يَدَيِ اللَّهِ وَرَسُولِهِ وَاتَّقُوا اللَّهَ إِنَّ اللَّهَ سَمِيعٌ عَلِيمٌ

Ma'nosи: Ey iymon keltirganlar! Allohdan va Uning Rasulidan oldin shoshilmanglar. Va Allohga taqvo qilinglar. Albatta Allah eshituvchi va biluvchi zotdir. (Hujurot surasi 1-oyat)

Bu sura Allah taoloning mo'minlarga o'rgatgan yuksak odobi ilan boshlandi. Ya'ni, Allahning shariatiga yuzlanish va Rosulining amriga ergashish. Allahdan va rosulidan oldin hukm chiqarishga shoshmaslik.

Ushbu oyati karima o'zida bayon va bade' uslublarini jamlagan. Shuning bilan birga tamsiliy istiorani ham ko'rish mumkin. Huddi podshoxdan oldinlab o'tib ketmay, uni ortida yurish taqozo qilgan odoblardan biri bo'ganidek, Allah va Rosulidan oldinga o'tib ketmaslik ham taqozo qiladigan odoblardan biridir deya o'xshatish keltirildi.

Istioraning lug'aviy ma'nosи "iora" biron narsani foydalanib turishga olish, istiora deganda, msiol uchun birovning libosini kiyib olib, yana uning nomi bilan chaqirilishini keltirish mumkin. Istelohda: Haqiqiy va ko'chma ma'nolari orasidagi aloqasi, bog'liqligi mushobaha – o'zaro o'xshashlik bo'lgan va o'zining asliy ma'nosini iroda etishdan man etadigan qarinasi bilan o'z ma'nosidan boshqa ma'noda ishlatilgan kalima istiora deyiladi.

2. Mursalul mujmal tashbeh.

يَأَيُّهَا الَّذِينَ ءَامَنُوا لَا تَرْفَعُوا أَصْوَاتَكُمْ فَوْقَ صَوْتِ اللَّهِي وَلَا تَجْهَرُوا لَهُ بِالْقَوْلِ كَجَهْرٍ بَعْضُكُمْ لِبَعْضٍ أَنْ تَحْبَطَ أَعْمَلُكُمْ وَأَنْتُمْ لَا تَشْعُرُونَ

Ma'nosи: Ey iymon keltirganlar! Ovozingizni Payg'ambar ovozidan yuqori ko'tarmang va unga bir-biringiz ila so'zlashgandek dag'al so'z aytmang, o'zingiz sezmagan holda amallaringiz habata bo'lib qolmasin. (Hujurot surasi 2-oyat)

Ushbu ikkinchi oyatda mursalul mujmal tashbeh borligini ko'rish mumkin. Ushbu tashbehda adoti tashbeh bo'lgan الكاف harfini keltirish bilan o'xshatish hosil qilindi.

Tashbehning lug'aviy ma'nosи o'xsahitishdir. Istelohda esa: tashbeh maqsad uchun biron o'xsahitish vositasini lafzi bilan keltirgan holda yoki taqdiran qoldirish bilan ma'noda o'zaro sherikligi bo'lgan bir amrni boshqasiga qo'shishdir. Tashbeh o'xsahitish vositalarining



e'tibori bilan ikki xil bo'ladi: mursal va muakkad.

Mursal deb o'xshatish vositasi lafzi bilan yoki taqdiran, ya'ni hayolda keltirilishiga aytiladi³.

Ya'ni Alloh taolo avvalo O'zi va Rosuliga tegish ikki xos odobni Sanadi. Biri ulardan oldinga o'tmaslik, ikkinchisi esa Rosuliga hammaga qilingan muomaladek xitob qilmaslik. Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam)ning hurmatlaridan, ularni e'zozlab, ularga ovozni ko'tarmaslik sahabalarga odob o'laroq o'rgatildi. Bu oyat nafaqat sahabalarga tegishli, balki biz ham ushbu oyatga amal qilgan holatda, u zotning hadislarini eshitganda hurmat ila muomala qilishimiz, ismlari zikr qilinganda salovat aytishimiz zarur bo'ladi. Chunki Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) omma insonlar kabi emaslar.

إِنَّ الَّذِينَ يَعْضُلُونَ أَصْوَاتَهُمْ عِنْدَ رَسُولِ اللَّهِ أُولَئِكَ الَّذِينَ آمَنُوا هُنَّ لَهُمْ مَعْفُرَةٌ وَأَجْرٌ عَظِيمٌ

Ma'nosi: Albatta, Rasulullohning huzurida ovozlarini pastlatganlar, ana o'shalar Alloh qalblarini taqvoga imtihon qilgan zotlardir. Ularga mag'firat va ulkan ajr bor.

(Hujurot surasi 3-oyat)

يَأَيُّهَا الَّذِينَ ءامَنُوا إِنْ جَاءَكُمْ فَاسِقٌ إِنْتَ بِنَبِيٍّ فَتَبَيَّنُوا أَنْ تُصِيبُوهُ قَوْمًا بِجَهَنَّمِ فَتَصْبِحُوْا عَلَىٰ مَا فَعَلْنَاهُ نَدِمِينَ

Ma'nosi: Ey iymon keltirganlar! Agar fosiq xabar keltirsa, aniqlab ko'ringlar, bir qavmgan bilmasdan musibat yetkazib qo'yib, qilganingizga nadomat chekuvchi bo'l manglar. (Hujurot surasi 6-oyat)

Alloh va Rosuliga nisbatan ko'rsatilishi kerak bo'lgan xos odoblar sanalgach, mo'minlarga tegishli omm odoblar sanaladi. Ya'ni mo'minlarga kelgan har qanday xabarni isbotlamay, rostligini bilmay turib, unga ishonmaslik, unga suyanmaslik odobidir. Jamiyatimizda va hayotimizda bu borada juda ko'p kamchilik va muammolarga duch kelamiz. Oyatda "fosiq" so'zi keldi. U bir narsadan tashqariga chiqish ma'nosidadir. Masalan, axloqdagi fosiqlik, iymon va islomdagi fosiqliknинг ko'rinishlari quyidagicha bo'ladi: axloqdagi fosiqlik – axloqdan chiqib ketishni angatsa, iymon va islomdagi fosiqlik ularni chegarasidan tashqariga chiqishni anglatadi. Bu yerda ham yuqoridagi kabi o'xshatish bor.

3. Iltifot.

وَأَعْلَمُوا أَنَّ فِيهِمْ رَسُولُ اللَّهِ لَوْ يُطِيعُكُمْ فِي كَثِيرٍ مِّنَ الْأَمْرِ لَعَنْتُمْ وَلَكُنَّ اللَّهُ حَبَّبَ إِلَيْكُمُ الْإِيمَانَ وَرَزَّيْنَاهُ فِي قُلُوبِكُمْ وَكَرَهَ إِلَيْكُمُ الْكُفْرُ وَالْفُسُوقُ وَالْعَصْيَانُ أُولَئِكَ هُمُ الْأَرْشَدُونَ

Ma'nosi: Va bilinglarki, albatta, ichlaringizda Rasululloh bordir. Agar U ishlardan ko'pida sizga itoat qilsa, albatta, qiyinchilikka duchor bo'lardingiz. Lekin, Alloh sizlarga iymonni mahbub qildi va uni qalblaringizda ziynatladi va sizlarga kufrni, fisqni va isyonni yomon ko'rsatdi. Ana o'shalar to'g'rilikda yuruvchilaridir. (Hujurot surasi 7-oyat)

Ushbu oyatda xitobdan g'aybga o'tish bilan iltifot qilish bor. Ya'ni oyatning boshidan sahabalarga xitob qilinib siz deya murojaat qilinayotgan edi. Oyatning so'ngida esa "Ana o'shalar to'g'rilikda yuruvchilaridir" deya keldi. Mana shu iltifot deyiladi. Va bu bade' ilmining tahsinotlaridandir.

4. Muqobala.

وَكَرَهَ إِلَيْكُمُ الْكُفْرُ وَالْفُسُوقُ وَالْعَصْيَانُ وَ حَبَّبَ إِلَيْكُمُ الْإِيمَانَ وَرَزَّيْنَاهُ فِي قُلُوبِكُمْ

³ Balog'at fani



“mahbub qildi” va گَرَّه “yomon ko’rsatdi” so’zlari bir-biriga zid ma’noda bo’ladi.

Demak, muqobala bir kalomda ikki va undan ko’p bir-biriga teskari ma’nodagi lafzlarni to’plab, gapni chiroyli va betakror qilish ekan. Ya’ni, avval ikki va undan ko’p bir-biriga teskari bo’lmagan ma’nolarni keltirib, keyin har bir ma’noga mos ravishda, tartib bilan uning teskarisini zikr qilishdir. Muqobala ikkitadan oltitagacha ma’nolar o’rtasida bo’lishi mumkin.

Yuqoridagi oyatda ham گَرَّه va حَبَّ keldi. Hamda الْكُفَّرُ va أَلِيمٌ keldi.

5. Mutobaqa.

وَإِن طَائِقَاتٍ مِنَ الْمُؤْمِنِينَ أَفْتَأْلُوا فَأَصْلِحُوا بَيْنَهُمَا فَإِنْ بَعْثَتْ إِحْدَاهُمَا عَلَى الْآخَرِيِّ فَقُتِلُوا أَلَّا تَبْغِي حَتَّى تَقِيَءَ إِلَيْهِ أَمْرَ اللَّهِ فَإِنْ فَاءَتْ فَأَصْلِحُوا بَيْنَهُمَا بِالْعَدْلِ وَأَفْسِطُوا إِنَّ اللَّهَ يُحِبُ الْمُفْسِطِينَ

Ma’nosи: Agar mo’mnlardan ikki toifa urushib ketsalar, bas, o’talarini isloh qiling. Agar ulardan biri ikkinchisiga tajovuz qilsa, siz tajovuz qilganiga qarshi, to u Allohnинг amriga qaytgunicha urushing, agar qaytsa, bas, o’talarini adolat bilan isloh qiling. Odil bo’ling, albatta, Alloh adolat qilguvchilarni suyadir. (Hujurot surasi 9-oyat)

Ushbu oyatda muqobalaga qarshi o’laroq mutobaqa bor. Oyatdagи va اَفْتَأْلُوا va فَأَصْلِحُوا so’zlari o’rtasida mutobaqa bo’ldi. Mutobaqa bir kalomda ikki bir-biriga qarama-qarshi ma’nolarni jamlashdir. U bir so’z turkumidan yoki turli so’z turkumiga oid lafzlardan tuzilishi mumkin. Mutobaqaning muqobaladan farqi shundaki, mutobaqa bir kalomda bir ma’noga ziddini keltirish bilan kifoyalanadi. Muqobalada esa bir kalomda bir necha bir-biriga qarama-qarshi ma’nolar jamlanadi va shunisi bilan chiroyli gap tuzishga yo’l ko’rsatadi.

6. Balig’ tashbeh.

إِنَّمَا الْمُؤْمِنُونَ إِخْوَةٌ فَأَصْلِحُوا بَيْنَ أَخْوَيْكُمْ وَاتَّقُوا اللَّهَ لَعَلَّكُمْ تُرَحَّمُونَ

Ma’nosи: Albatta, mo’mnlar birodardirlar, bas, ikki birodaringiz o’rtasini isloh qiling, Allohga taqvo qiling, shoyadki, rahm qilinsangiz. (Hujurot surasi 10-oyat)

إِنَّمَا الْمُؤْمِنُونَ إِخْوَةٌ kalomi orqali komil tashbeh bo’ladi. Sababi bu yerda adoti tashbeh ham, unga taqozo qiladigan lafz ham hazf qilingan. Aslida oyat taqdirida ushbu ko’rinishda: الْمُؤْمِنُونَ كَالَاخْوَةِ فِي وِجْوبِ التَّرَاحِمِ وَالتَّنَاصِرِ bo’lishi kerak edi. Lekin unday kelmadi.

Oyati karimada “birodar” deb tarjima qilingan so’z arab tilida birlikda “axun” kalimasi bilan ifoda qilinib, ikki xil ma’noda ishlatiladi.

Birinchisi – aka yoki uka, ya’ni tug’ishgan birodar ma’nosida

Ikkinchisi – do’st, og’ayni, ya’ni tutingan birodar ma’nosida.

Qur’oni Karimning mo’jizaligini qarangki, mo’mnlarning birodarligi haqida so’z ketganda, tug’ishgan birodarlar ma’nosidagi “ixvatun” so’zi ishlataligan va bu bilan mo’mnlar huddi tug’ishgan aka-ukalardek ekani ta’kidlangan.

7. Tamsiliy tashbeh.

يَأَيُّهَا الَّذِينَ ءَامَنُوا أَجْتَبْيُوا كَثِيرًا مِنَ الظُّنُنِ إِنَّ بَعْضَ الظُّنُنِ إِنَّمَا وَلَا يَعْلَمُ بَعْضُكُمْ بَعْضًا أَيْحِبُّ أَحَدُكُمْ أَنْ يَأْكُلْ لَحْمَ أَخِيهِ مَيْتًا فَكَرْهُنُوهُ وَتَنَّقُوا اللَّهَ إِنَّ اللَّهَ نَوَّابُ رَحِيمٍ

Ma’nosи: Ey yimon keltirganlar! Ko’p gumonlardan chetda bo’linglar, chunki ba’zi gumonlar gunohdir. Josuslik qilmanglar. Ba’zilaringiz ba’zilaringizni g’iybat qilmanglar. Sizlardan birortalarining o’zining o’lgan birodarining go’shtini yeyishni yaxshi ko’radimi? Ha, yomon ko’rasizlar. Allohdan qo’rqinglar! Albatta, Alloh tavbani ko’p qabul qiluvchi va



rahmlidir. (Hujurot surasi 12-oyat)

أَيُّجُبُ أَحَدُكُمْ أَنْ يُكْلِلَ لَحْمَ أَخِيهِ
oyerida tamsiliy tashbiyh bo'ladi. Alloh taolo g'iybatning misolini huddiki birodarining mayxitini yeyayotgan kishining misoliga o'xshatdi. Toki g'iybat zehnda eng qabih va eng faxsh ishdek tasvirlanishi uchun bunda ko'p mubolag'a bor. Bu o'xshatishda badiiylikning o'ta nozik asari bordir.

8. Mutobaqatus sult.

فَالَّتِي أَلَا عَرَابُ ءَامَّةٌ قُلْ لَمْ تُؤْمِنُوا وَلَكِنْ قُولُوا أَسْلَمْنَا وَلَمَّا يَدْخُلُ الْإِيمَنَ فِي قُلُوبِكُمْ وَإِنْ تُطِيعُوا اللَّهَ وَرَسُولَهُ لَا يَلْتَكُمْ مِّنْ أَعْمَلِكُمْ شَيْئًا إِنَّ اللَّهَ عَفُورٌ رَّحِيمٌ

Ma'nosi: A'robiylar, iymon keltirdik, dedilar. Sen: "Iymon keltirganingiz yo'q, lekin bo'yinsundik denglar, hali iymon qalblaringizga kirgani yo'q va agar Allohga va Uning Rasuliga itoat qilsangiz, amallaringizdan hech narsa kamimas. Albatta, Alloh kechiruvchi va rahmli zotdir", deb ayt. (Hujurot surasi 14-oyat)

Ushbu oyatda sulbdagi mutobaqaga misol kelmoqda. Ya'ni A'robiylar, iymon keltirdik, dedilar. Sen: "Iymon keltirganingiz yo'q..." lafzning sultidan qarama-qarshi ma'no zikr qilinyapti.

Nega a'robiylar iymonlarini minnat qilishdi? Inson qilayotgan ishini boshqa birovga kerak deb qilganida minnat qiladi. Alloh iymoningizni minnat qilmang, dedi. Balki Alloh sizni iymonga keltirib hidoyat qilgani uchun minnat qiladi. Biz qilayotgan ishlarimizning hammasi, boshqalarga deb o'ylab qilgan yaxshilig-u ehsonlarimizning barchasi aslida o'zimizga kerak. Aslida ularga ko'proq biz muxtojmiz. Shuning uchun hech qachon minnat qilishga haqli emasmiz. Alloh esa minnat qilishga eng haqli Zotdir.

9. Tavbix uchun inkoriy istefhom.

قُلْ أَنَّعَمْنَاهُ اللَّهُ بِدِينِكُمْ وَاللَّهُ يَعْلَمُ مَا فِي السَّمَاوَاتِ وَمَا فِي الْأَرْضِ وَاللَّهُ بِكُلِّ شَيْءٍ عَلِيمٌ

Ma'nosi: Sen: «Allohga diningizni bildirmoqchimisiz? Va holbuki, Alloh osmonlaru yerdag'i narsani biluvchi zotdir. Alloh har bir narsani biluvchidir», deb ayt. (Hujurot surasi 16-oyat)

Ushbu oyatda haqiqiy ma'noda savol so'ralmayapti balki, eshituvchida qo'rquvni uyg'otish, tartibga chaqirish va tanbeh berish uchun javobi anniq bo'lgan ritorik savol so'rалмоқда. Ya'ni, "Allohga diningizni bildirmoqchimisiz?" ma'nosida.